

JAHON
XALQ ERTAKLARI


AHMMO TIMSOH



• ENSIKLOPEDIYA •
NASHRIYOTI



AHMOQ TIMSOH



UO'K: 398.21(=512.133)


KBK: 2(50')

X 22

Ertaklar xalq og'zaki ijodining eng boy va rang-barang janrlaridan biridir. Ular sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxon ongiga tez yetib boradi. Ertaklarda xalqning kelajakka bo'lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, yorug'likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g'oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlanadi. Yaramas odatlar, noma'qul illatlar tanqid ostiga olinadi, mardlik, epchilik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik kabi g'oyalar ulug'lanadi.

Kichkintoylar o'zlari tinglagan yoki o'qigan ertaklari yordamida atrof olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu nima yomonligini bilib o'saveradilar.

O'ylaymizki, bu kitobcha ham bolajonlarimizning doimiy hamrohiga aylanadi, ularni ezgulik sari yetaklashga xizmat qiladi.



ISBN 978-9943-07-759-1


© M. Omon tarjimai

© „Ensiklopediya“ nashriyoti, 2022

AHMOQ TIMSOH

(Hind xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir zamonlar bitta Sirtlon bo‘lgan ekan. U daryo bo‘yidagi kichkinagina o‘rasimon uyasida yashar ekan. U suv ichgani tez-tez daryoga borib turar ekan. Xuddi shu daryoda Timsoh ham yashar ekan. Timsoh doim qirg‘oq bo‘yidagi butalar ostiga berkinib olib, maboda daryoga birorta jonivor suv ichgani kelib qolsa, uni qo‘lga tushirib, paqqos yutaman, degan umid bilan poylab o‘tirar ekan.




Sirtlon bir kuni daryo bo'yiga kelsa, daryoning suvi juda loyqalangan emish. Shunda u suvi tozaroq joydan chanqog'imni qondirarman, – deb daryoga asta tushib nariroq borgan ekan, Timsoh uning oyog'idan shartta tishlab olibdi!


Sirtlon, avvaliga rosa qo'rqib ketibdi, keyin esa o'zini bosib olib: „nima qilsam, oyog'imni Timsohning jag'idan omon-eson qutqarib olarkanman“ – deya o'ylay boshlabdi. Uning xayoliga shunday bir ajoyib fikr kelibdi. Yaxshisi Timsoh tishlab turgan oyog'imni umuman qimirlatmayman, xuddi u mening oyog'im emasdek, tutaman!

U shunday qarorga kelib, Timsohga bamaylixotir shunday debdi:

– Hoy, Timsoh oshna, bormisan. Bilasanmi, shu yerda ekaning juda yaxshi bo'ldida. Mening oyoqlarim suv ostidagi cho'kindimi, bilmayman, allambalolarga ilashib qoldi. Agar yordam bermasang, men cho'kib ketaman! Iltimos, menga tezroq yordam ber, oyog'imni shu narsalardan qutqar – debdi.



Men
deya, Sulfur
fish!





Laqma Timsoh esa Sirtlonning bu shumligiga chippa-chin ishonibdi va o'zicha: Eh, men shunchalar ham nodon bo'lamanni, bu tishlab turganim Sirtlonning oyog'i emas, shunchaki bir suvosti o'tlarining ildizi ekan-ku? Men uni Sirtlonning oyog'i deb, tishlab o'tribman-a?! – Timsoh shunday deya, Sirtlonning oyog'ini bo'shatib, endi pastdagi dengiz o'tlarining ildizini tishlab olibdi.

Bundan Sirtlon xursand bo'lib ketibdi va Timsohga qarab:

– Katta rahmat senga, og'ayni! – debdi-da, bamaylixotir quvnoq bir qo'shiqni aytib yo'lida davom etibdi.

Timsoh Sirtlon uni boplab aldanini tushunib yetgach, o'zinig nodonligi va ahmoqligidan rosa jahli chiqibdi, judayam g'azablanib ketibdi. Ertasi kuni Sirtlon yana qirg'oqda paydo bo'libdi. Ayyor Sirtlon bugun ham Timsoh daryoda uni kutib, intiq bo'lib poylab o'tirganini sezibdi. Biroq, shunday bo'lsa ham o'zining bu fikri qanchalar to'g'ri ekanini yana bir tekshirib olish uchun, baland ovozda shunday debdi:

– Kecha men daryoga suv ichgani kelganimda, bu yerda juda ko'p mayda baliqchalar suzib yurganini va ular og'izchalaridan mayda-mayda pufakchalar chiqarishayotganini ko'rgandim. Bundan suv yanada tozalanib, shirinroq bo'layotgandek edi. Bugun esa, suvning yuzasi tip-tiniq, birorta ham pufakchalar ko'rinmaydi. Yaxshisi men bugun suv ichmay qo'ya qolaman!

Sirtlonning bu gapini suv ostida eshitib turgan Timsoh, uning tezroq suvga tushishini istab, shunaqangi nafas chiqaribdiki, suv yuzasida birdaniga ko‘plab, katta-katta pufakchalar hosil bo‘libdi.

Buni ko‘rgan Sirtlon Timsohning shu yerda ekanini bilib, juftagini rostlab, qochib qolibdi. Ha-ya, Sirtlon daryo bo‘yidan shunchaki qochib qolmabdi, ketayotganida landavur va noshud Timsohga kinoya qilib:

– Hoy Timsoh janoblari! Agar siz bugun meni tushlikka yeyman, deb o‘ylagan bo‘lsangiz, xato qilibsiz. Buni eplay olmaysiz, nachora endi buyog‘iga och qolib parhez qilishinggizga to‘g‘ri keladi-da! – deya qah-qah urib kulibdi.

Shundan keyin Sirtlon daryodan suv ichmaydigan bo‘libdi. Endi u chanqasa shu yaqin oradagi bir hovuzga borar ekan. Timsoh esa o‘zini Sirtlon bir emas, ikki marotaba boplab aldab ketganidan jahli chiqib, ancha vaqtgacha alamzada bo‘lib yuribdi. Shu boisdan u doim qanday qilib, bu yaramas Sirtlonni tutib olsam-u, boplab adabini bersam, alamimni olsam ekan, degan xayol bilan yurar ekan.

Daryoning sohilida kattagina bir mango daraxti o‘sar ekan. Sirtlon esa g‘arq pishgan, bir tishlaganda sharbatlari lablaridan oqib tushadigan mangoni jonidan ham ortiq yaxshi ko‘rarkan. U ko‘pincha ayni shu daraxtning ostiga kelib, yerga tushgan mangolarni terib yer ekan.

Sirtlon, bir kuni yana o‘sha mango daraxtining ostiga kelib qarasa, u yerda bir uyum mango mevalari xirmon kabi do‘ppayib turgan emish. „Bunda bir gap bor“, – deya shubhalanibdi Sirtlon. Tag‘in nima gapligini aniq bilish uchun avvalgi usulini qo‘llabdi va ovozni baland qilib:


– O‘tgan gal mango yegani kelganimda, mangolarning o‘zi shundoqqina panjalarimga kelib tushgan edi. Bugun negadir buni ko‘rmayapman. Bu juda g‘alati! – debdi.

Sirtlonning bu gaplarini eshitgan Timsoh berkinib olgan joyidan bir mangoni olib, Sirtlon tomonga irg‘itib yuboribdi. Buni ko‘rgan Sirtlon,

mangolar uyilib turgan xirmon ostida kimdir borligini payqabdi va bemalol qo‘shiq ayta boshlabdi:

*Shirin-shirin mango ostida,
Kimdir yotar o‘lja qasdida.
Ovchi ekan, noshud va nodon,
Biz chiqarmiz tuzoqdan omon!*





Sirtlon shu kinoyali qo‘shiqni aytib, shosha-pisha daraxt ostidan uzoqlashibdi. Timsoh, juda darg‘azab bo‘lib uning ortidan quva ketibdi, biroq unga yeta olmabdi. Endi Timsohning bir jahliga o‘n jahl qo‘shilib, o‘zining

shu qadar noshud va laqma ekanligidan, avvaligilaridan ham battar qahr-u g'azabga to'libdi va o'zicha: „Shu qilganiga bu ayyor Sirtlonning jonini sug'irib olaman!“ – deb qasam ichibdi.

Oradan yana bir necha kun o'tibdi. Kunlardan bir kun Timsoh Sirtlon yashaydigan o'ra ya'ni uyaning yoniga kelib, berkinib olibdi-da: „Sirtlon yaqin kelishi bilan yaramasni tappa bosaman“ – degan xayol bilan poylab yotibdi.

Sirtlon o'zi yashaydigan uyasiga yaqin kelib qarasa, u yerda katta-katta notanish oyoq izlari bor emish. Bundan shubhalangan Sirtlon, avvaliga qo'rqib ketibdi. Keyin o'zini biroz bosib olib, fikr qilibdi: „Bu qanaqasi bo'ldi





tag'in bu yerga Timsoh berkinib olgan bo'lmasin?" – u shunday deya o'ylab, uyasiga yaqin kelib baland ovozda qo'shiq boshlabdi:

*O'ra, o'ra, o'rajon,
O'z uyimsan, qadrdon.
Nima bo'ldi, ayt senga,
Kuylamaysan shod-xandon.*

– deya xirgoyi qilibdi va so'zining oxirida: Axir har gal kelganimda sen meni qo'shiq kuylab kutib olarding-ku. Uycham, jonajon maskanim mening! Bugun nima bo'ldi, ovozing eshitilmaydi? Yo tomog'inga biror narsa tiqilib qoldimi? Yo bo'lmasa, sening ichingda kimdir bekinib, bo'yningdan bo'g'ib turibdimi? – deya so'rabdi.

Sirtlonning bu gaplarini eshitib turgan laqma Timsoh, o'zining yoqimsiz va xirqiroq tovushi bilan qo'shiq kuylay boshlabdi:

*Salom, salom xo'jayin,
Men uyaman, dastiyor,
Xizmatingiz qilayin,
Toki qancha umrim bor!*

Sirtlon Timsohning xunuk ovozini darrov tanib olibdi va biroz o'ylanib turib, shunday debdi:

– Eh, attang, men o'tin terib kelishni unutibman-ku. Axir ichkarida o't yoqib uyimni isitmoqchi edim-ku! Men hozir kelaman!


Sirtlon shunday deb tezda bir necha shox-shabba va yo'g'ongina o'tinlarni tashmalab keltiribdi. Keyin esa shox-shabbalarni uyining og'ziga yaxshilab qo'yib, yoqib yuboribdi. Berkinib o'tirgan Timsoh tutundan nafasi qaytib, bo'g'ilib achchiq-achchiq yo'talib, uyadan yugurib chiqibdi va shu ketgancha orqasiga qaramay qochib qolibdi. Sirtlon esa o'zining zukkoligi bilan Timsoh hujumidan qutilib qolibdi.

MAQTANCHOQ CHIGIRTKA DENDI

(Ingliz xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan yaqin o‘tgan zamonda, allaqaysi tomonda Dendi degan bir chigirtka yashagan ekan. U nihoyatda maqtanchoq va manman ekan. Sababi u hali juda-juda kichkinaligida, do‘stlari bilan endigina sakrashni o‘rganayotgan paytlaridayoq, boshqa chigirtkalardan ancha balandroq va uzoqroqqa sakrab, hammani hayron qoldirishga intilar ekan. Bunday paytlarda ustozi unga qarab:

– Hoy, Dendi, sen faqat balandga va uzoqqa emas, balki kichikroq masofalarga, pastlab sakrashni ham o‘rganishing kerak, – deya tanbeh berar ekan.





Dendi esa ustoziga:

– Yo‘q, men boshqacha, alohida chigirtkaman. Qolaversa, hammaga o‘xshashni sirayam istamayman. Menga faqat balandga va uzoq masofaga sakrash yoqadi. Boshqasi kerak emas, – deya nopisandlik bilan javob qaytararkan.

Shunday qilib u o‘zining maqtanchoqligi sababli, pastlab sakrashni ham, yaqin masofaga sakrashni ham o‘rganib olmabdi.

Kunlardan bir kuni u sakrab o‘ynagani uyidan chiqibdi va yo‘lida Oliviya degan shilliqqurtni uchratib qolibdi. Keyin undan:

– Hoy, Oliviya, bir umr mana shunday imillab yurish sening joningga tegmadimi? – deb so‘rabdi, masxara qilayotganday. – Kun bo‘yi uyingni



yelkangga qo'ndirib olib, sudralganing, sudralgan, shuyam ish bo'ldimi? – deb qo'shib ham qo'yibdi.

– Iye, nimalar deyapsan, – javob beribdi Oliviya, kulimsirab. – Men sudralib yurishni jonimdan ham ortiq ko'raman-ku. O'zimning Shiliqqurt ekanimdan ham juda xursandman. Ayniqsa yomg'ir yog'ayotgan paytlarida bundan yanayam faxrlanib ketaman. Negaki hammayoq ho'l, sovuq bo'lganida mening uyimning ichi issiq va quruq bo'ladi. Buning ustiga, men hech qachon uyimga ertaroq borishim kerak edi-da, kechikib ketdim, demayman. Axir uyim hamisha o'zim bilan. Hoynahoy, nima haqda gapirayotganimni yaxshi tushunsang kerak? – debdi va so'zining oxirida – „Ochig'ini aytsam, shiliqqurt bo'lish judayam maza!“ – deya jilmayibdi.

– Ha, mayli, debdi Dendi, har kimniki o'ziga oy ko'rinar ko'ziga, – deganlari shu bo'lsa kerak-da. Bo'пти, omon bo'l! – Dendi shunday deya yana manmansirab baland-baland sakragancha yo'lida davom etibdi. Oliviya esa bundan muomiladan xafa bo'libdi.







Chindan ham Dendi juda ajoyib sakrovchi edi. Umuman olganda, hamma chigirtkalar ham sakrash bobida ustasi farang bo'lishadi. Biroq Dendi bir sakraganda naqd o'ttiz santimetr gacha borib tushar edi. Agar uning gavdasi atigi uch santimetr ekanini hisobga oladigan bo'lsak, bu nihoyatda katta masofa.


– Lekin Dendining qo'lidan kelmaydigan ishlar ham bor edi. Aytaylik u kichik masofalarga, o'n besh yoki o'n santimetr gacha sakrashning hech uddasidan chiqar olmasdi. U har gal „Ho'ppa-ho'p“ – deya bir sakraganda faqat o'ttiz santimetr nariga borib tushaverarkan.

– U Oliviya bilan gaplashib turgan vaqtida tushlik payti ham bo'lib qolibdi. Dendi tamaddi qilgani uyiga shoshilibdi. Aytgancha u deyarli uyining oldida ekan. Uyigacha bo'lgan masofa atigi o'n santimetr gacha qolgan ekan xolos. Biroq u qancha harakat qilmasin, hecham o'z uyining yoniga bora olmabdi. Negaki har sakraganda u o'ttiz santimetrlik joyga borib tushib, uyining ustidan o'tib ketaveribdi. Axir u kichik masofaga sakrashni o'rganmagan-ku!

Bu holat bechora Dending toqatini toq qilib yuboribdi, yaqin masofaga sakray olmagani unga rosa alam qilib ketibdi. Biroq, yaxshiyamki shu payt Dending yoniga kimdir kelib qolibdi!

Xo'sh, kim deb o'ylaysiz, aziz bolajonlar? – Ha, ha, xuddi o'sha uychasini doim yelkasiga ortib yuradigan shilliqqurt Oliviya. U Dendiga qarab:





– Ana ko‘rdingmi Dendi, shilliqqurtlarning ham maqtansa arzigulik tomonlari bor. Har holda ular uylariga hech bir qiyinchiliksiz kirib oladilar, – debdi jilmayib.

Oliviya nihoyatda ko‘ngilchan, mehribon shilliqqurt ekan. (albatta, shilliqqurtlarning hammasi ham juda mehribon, ko‘ngli ochiq bo‘lishadi, agar o‘sha kuni chap yonlari bilan turmagan bo‘lishsa). Oliviyaning mehri tovlanib, Dendiga qarab:

– Qani Dendi mening yelkamga chiqib o‘tirib ol-chi, seni uyingga o‘zim olib borib qo‘yaman! – debdi.

Bu taklifdan Dendi judayam xursand bo‘lib ketibdi va shilliqqurtning yelkasiga chiqib olibdi. Oliviya esa shoshilmasdan, uni uyiga eltib qo‘yibdi.

Uyiga yetib olgach, Dendi:

– Rahmat senga Oliviya! Men endi hammasini tushundim, bu hayotda o‘z maqsadingga yetishish uchun faqat uzoqqa va balandga sakrashning o‘zi yetarli emas ekan! – deya, Oliviyaga minnatdorlik bildiribdi.



82(50')
X 22

Ahmoq timsoh / [Matn]: ertak. – Toshkent:
„Ensiklopediya“ nashriyoti MChJ, 2022 y. – 24 bet.

ISBN 978-9943-07-759-1

UO'K 398.21(=512.133)
KBK 82(50')

RASSOM:

SHOHRUX TOSHTURDIYEV

JAHON XALQ ERTAKLARI

„Ensiklopediya“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Tarjimon *Muhiddin Omon*
Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shohrux Toshturdiyev*
Kompyuterda sahifalovchi *Shahnoza Sobirova*

Bosishga ruxsat etildi 29.10.2022. Bichimi 84×108¹/₁₆,
„Times New Roman“ garniturası. 14 kegl.
Hisob-nashriyot tabog'i 1,05.
Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 865-22.

„Credo Print“ MChJ kitob fabrikasida chop etildi.
Toshkent shahar, Bog'ishamol ko'chasi. 160.



Toshkent shahar, Chilonzor tumani,
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.



Ensiklopediya_nashriyoti_MU2021



Ensiklopediya_nashriyoti

ISBN 978-9943-07-759-1



9 789943 077591